

**ONA TILI DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA
TASHKILLASH YUZASDAN ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARI
UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Toshpo'latova Dilshoda Adxamovna
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
3-sonli o'rta ta'lif maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyadada ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol usullarning qo'llanilishi, interfaol metod turlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: interfaol, "Charxpalak" metodi, "Xotira mashqi" o'yini, "Maqol yoki she'r" o'yini, "Bo'g'in" o'yini.

*"Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili
xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz
timsoli, beباho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir"*

Sh. M. Mirziyoyev

Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, xalq mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. Maktablarda ona tilimizning o'qitilishi, o'quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e'tibor berish talab etilmoqda. Yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko'rgazmalar va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari bunga yaqqol misol. Bularning barchasi ona tilimiz rivoji va yangi davr kishilarini shakllantirishga qaratilgan.

Ayniqsa, ona tili fanini umumta'lif maktablarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarni berish bilangina cheklanib qolish ta'lif sifatini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etish va DTSdan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Bu chora-tadbirlar o'qituvchilarning kasb mahorati va o'quv jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissasi, ta'lifning yuqori samaradorligi hamda sifati, o'z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o'stirishi, o'qituvchi tomonidan ilg'or metodlar va pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashi uchun yaratilgan imkoniyatlar.

Ona tili darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, ”BBB”, ”FSMU”, ”Venn diagrammasi”, ”Charxpalak”, ”Tushunchalar tahlili”, ”Raqamlar so’zlaganda”, ”Baliq skleti”, ”Yelpig’ich”, ”Bumerang”, ”Zakovat”, ”Ha yoki yo’q”, ”Zinama-zina”, ”Sinkveyn”, ”SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo‘lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o‘qituvchi o’zi dars beradigan o‘quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘ziga xos yo‘nalishda tashkil etishi, o‘zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o‘xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bunday o‘yinlar mavzularni o‘quvchilatga oson va tushunarli berishning yo‘llaridan biri hisoblanib, o‘qituvchi yangi-yangi ta’limiy o‘yinlarni darslarida qo‘llashi, hatto o‘zi ham shunday o‘yinlarni o‘ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

”Charxpalak” metodi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishslash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga orgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo’ljallangan.

”Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg‘ulot o‘tkazish uchun o‘quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin: So‘z ma’nosining ko‘chish usullari. Berilgan gaplardagi ma’no ko‘chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo‘ying.

Misollar	Metafora	Metoni-miya	Sinek-doxa	Vazifa-doshlik
Zal oyoqqa turdi.		*		
Mungli kuy yurakni tirnar edi.	*			
Besh qo‘l barobar emas.			*	
Sizning tomiringizda buyuk bobokalonlarimiz qoni oqmoqda.				*
Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar.	*			

Mabodo “Besh bolali yigitcha” kelmadimi?		*		
Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.	*			
Ko‘chalarni chiroqlar yop-yorug‘ qilib turibdi.				*
Alisher Navoiyni so‘nggi yo‘lga kuzatishga butun Hirot yig‘ilgan edi.		*		
O‘n qo‘li – o‘n hunar.			*	

“Xotira mashqi” o‘yini. Ushbu metodda mavzuga oid so‘zlar takrorlash va eslab qolish maqsadida shu metoddan foydalaniladi. Ot - turdosh ot - taqlid so‘zlar – ravish...

“Maqol yoki she‘r” o‘yini. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va maqollarni, she‘rlarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi o‘yin shartini aytmagan holda talabgor o‘quvchilarni doska oldiga taklif etadi. O‘quvchilar istaganicha chiqishlari mumkin. O‘qituvchi birinchi o‘quvchiga kitob yoki qiziqarli biror buyum (karobka, koptok...) beradi. O‘quvchi berilgan topshiriq sharti bo‘yicha maqol yoki biror mavzuga oid ruscha-o‘zbekcha so‘z, she‘r aytib uni sheringiga uzatadi. Topshiriqni bajarolmagan yoki aytilgan so‘z yoki maqolni takrorlagan o‘quvchi o‘rniga o‘tiradi. O‘yin bitta o‘quvchi qolgunicha davom ettiriladi. Oxirgi qolgan o‘quvchi g‘olib bo‘lish uchun takrorlanmagan holda topshiriqni bajaradi va g‘olib bo`ladi.

“Bo‘g‘in” o‘yini. O‘qituvchi sinf taxtasiga bir bo‘g‘in yozadi. O‘quvchilar so‘z boyliklaridan foydalangan holda shu bo‘g‘in bilan boshlanuvchi so‘zlardan yozadilar. Masalan, bo bo-la, bo-dom, bo-shoq; sa sa-far, sa-daf, sa-har-lab...

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining o‘sishida, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017 2.
- N. Mahmudov, A. Nurmonova va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. Ona tili. 124-126-betlar. Toshkent - 2017
- Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent “Noshr” nashriyoti, 2009, 351.
- Yo‘ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
- Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?.> “ Ta’lim texnologiyalari”